



INKLYUZIV TA'LIM: TOLERANT MUHITNI YARATISH RESURSI SIFATIDA

Turan International University Gumanitar Fanlar va pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim SMT-22-GU guruh 4-kurs talabasi

Bazarova Nozima Abduqahharova

Annotatsiya

Ushbu maqolada inklyuziv ta'limning mohiyati, uning tolerant muhit yaratishdagi roli va amaliy resurslari tahlil qilinadi. Inklyuziv ta'lim nafaqat o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, balki jamiyatda hurmat, bag'rikenglik va teng imkoniyatlar tamoyillarini shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada inklyuziv ta'lim jarayonida qo'llaniladigan metodlar, pedagogik strategiyalar va resurslar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, tolerant muhit, pedagogik resurslar, bag'rikenglik, teng imkoniyatlar.

Annotatsiya

This article analyzes the essence of inclusive education and its role in creating a tolerant environment, along with practical resources. Inclusive education is aimed not only at meeting the individual needs of students but also at fostering principles of respect, tolerance, and equal opportunities in society. The article explores methods, pedagogical strategies, and resources used in the process of inclusive education.

Keywords: inclusive education, tolerant environment, pedagogical resources, tolerance, equal opportunities.



Kirish

So‘nggi yillarda ta‘lim sohasida inklyuziv yondashuvlar katta ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda zamonaviy ta‘limga inklyuziv yondashuv asosiy ta‘lim strategiyalaridan biri sifatida



qaralib, u imkoniyati cheklangan bolalarni o‘qitish, reabilitatsiya qilish, reabilitatsiya qilish uchun zarur bo‘lgan ijtimoiy, psixologik va pedagogik shart-sharoitlarni belgilashning muhim yondashuvlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Bugungi kunda inklyuziv ta‘limning maqsadga muvofiqligi, uning mohiyati, maqsad va vazifalari to‘g‘risidagi munozaralar yakunlanganini aytish mumkin.

Inklyuziv ta‘limning milliy tajribasini shakllantirish, inklyuziv ta‘limning hududiy modellarini ishlab chiqish, umumta‘lim muassasalari sharoitida maxsus ta‘limning ilg‘or uslub va texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikada inklyuziv ta‘lim siyosatini keng joriy qilishga qaratilgan chora-tadbirlar, xalqaro va milliy ish tajribalarini o‘rganish davlat va nodavlat tashkilotlarning hamkorlik loyihalari, jumladan: Xalqaro UNESCO, UNICEF, Osiyo Taraqqiyot Banki, Osiyo mintaqasi Yaponiyada joylashgan UNESCOHR madaniy markazi (ACCU), USAID, «MERCY PROJEKT», «OPERATION «MERCY» nodavlat tashkilotlari, «Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi» (RBIMM), «Sen volg‘iz emassan», «Ijtimoiy tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash fondi» (ITKKF), Xalq ta‘lim vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligining pedagogika yo‘nalishidagi institutlari, xalq ta‘lim xodimlarini malakasini oshirish, qayta tayyorlash va milliy nodavlat jamoa tashkilotlarinng



hamkorlik loyihalari asosida respublika va xalqaro seminar, konferentsiya, forumlarni o'tkazish, targ'ibot-tashviqot ishlari asosida amalga oshirib kelinmoqda.

Inklyuziv ta'lim – bu barcha o'quvchilarga, ularning qobiliyatlari va ehtiyojlaridan qat'iy nazar, teng va sifatli ta'lim olish imkoniyatini taqdim etishdir. Shu bilan birga, inklyuziv ta'lim jamiyatda bag'rikenglik, hurmat va tolerant muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Inklyuziv muhit yaratish nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar uchun, balki barcha o'quvchilarni ijtimoiy va emotsional rivojlanishga undaydi, ularni bir-birining farqliliklariga hurmat bilan qarashga o'rgatadi.

Inklyuziv ta'limning mohiyati

Inklyuziv ta'lim – bu barcha bolalarning teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan pedagogik yondashuvdir. Unda farqliliklar qabul qilinadi, o'quvchilarning individual ehtiyojlari inobatga olinadi va ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.

Tolerant muhit va uning ahamiyati

Tolerant muhit – bu o'quvchilar o'zlarini qabul qilingan, xavfsiz va hurmatga sazovor his qiladigan makon. Bunday muhitda farqliliklar salbiy qarorlar va diskriminatsiyasiz qabul qilinadi, hamda o'quvchilar bir-biriga yordam berish va hamkorlik qilishga o'rgatiladi.

Inklyuziv ta'limni joriy qilish uchun zaruriy chora-tadbirlar:

- inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini yaratish;
- erta tashxisni yo'lga qo'yish;
- maxsus ehtiyojli bolalarga nisbaan jamiyatda ijobiy munosabat uyg'otish;
- inklyuziv ta'lim borasida targ'ibot – tashviqot ishlarini kuchaytirish;



- ota-onalar va ham jamiyatning ishtirokini kuchaytirish;
- o'qitish uchun zarur vosita va asbob uskunalarning mavjudligi;
- ta'lim muassasalarini alohida ehtiyojli bolalar imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda moslashtirish;
- ta'lim berish usulublarining alohida ehtiyojli bolalarga moslashuvligi;
- kadrlar tayyorlash jarayonida islohotlarni amalga oshirish.
- inklyuziv ta'limni joriy qilish bo'yicha halqaro va milliy tajribalarga asoslangan holda multimediya kutubxonalarini tashkil etish va ularni ommaga targ'ibot qilish.
- har bir inklyuziv ta'lim muassasalar tasarrufida inklyuziv ta'limni targ'ibot qilish, o'quv metodik majmualar, dasturlar bilan ta'minlash va joylardagi mahalliy xalq ta'lim organlari bilan o'zaro aloqa tuzish, axborotlarni yetkazish vazifasini bajaruvchi pedagoglar, ota-onalar ishtirokidagi jamoaviy kengash tuzish.

Inklyuziv ta'lim resurs markazining vazifalari:

- bolalardagi nuqsonlarni erta tashxis qilish va erta korreksion-pedagogik yordamlarini amalga oshirish yo'llarini amalga oshirishga uslubiy-tashkiliy yordam berish;
- imkoniyati cheklangan bolalarning ota-onalari, inklyuziv ta'lim muassasalari pedagoglari, mutaxassislar, mahalla va jamoa tashkilotlariga alohida ehtiyojli bolalarni tarbiyalash, maktab ta'limiga tayyorlashda amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish; ta'limga jalb etilmagan bolalar ta'limiga tashkil etishga ko'maklashish;
- inklyuziv sinf va guruhlarni o'quv metodik majmualar, individual rivojlantiruvchi dastur, o'quv-metodik adabiyotlar, texnik vositalar bilan ta'minlashda amaliy yordam berish;



- joylardagi resurs markazlarga amaliy yordam ko'rsatish;
- inklyuziv ta'limni joriy qilishning ilmiy-uslubiy tashkiliy masalalari bo'yicha seminar-trening va konferensiyalar tashkil etish; rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarga kasb-hunar urgatish, kasb-hunar kollejlarga joylashtirish va ijtimoiy hayotga integratsiya qilish masalalarida yordam berish; inklyuziv ta'lim masalalari bo'yicha ma'muriy organlarga xatlar bilan murojaat qilib takliflar kiritish.

Inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari: Imkoniyati cheklangan bolalarning sog'lom bolalar qatorida erkin ta'lim olishi va bolalar o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlikni shakllantirish va ularni ijtimoiy muhitdan uzilib qolmasligini ta'minlash. Inklyuziv ta'limning imkoniyati cheklangan bolalar uchun afzalliklari:

- Boshqa bolalar bilan teng ravishda jamiyatga qo'shilish qobiliyati;
- Sifatli ta'lim olish hamda kelajakda Universitetlarda o'qish, o'zi xohlagan kasbni tanlash va mana shu kasb doirasida ishlash, jamiyatning to'laqonli va mustaqil a'zosi bo'lish imkoniyati;
- Oddiy bolalar hamdardlik, sabr-toqat, bag'rikenglik kabi insoniy fazilatlarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar;
- Bolalarning ota-onlari uchun ham qulay bo'ladi. Farzandlari har doim o'zlarining nazoratlari ostida bo'ladi.

Inklyuziv ta'limning afzalliklari bo'lgani kabi kamchiliklari ham mavjud. Masalan: maxsus ehtiyojli bolalar uchun zarur bo'lgan pedagog, psixologlar hamda boshqa mutaxassislarning yetishmasligi, o'quv binolarining ehtiyojli bolalar



imkoniyatidan kelib chiqqan holda jihozlanmaganligi, maxsus darslarning yetishmasligi va boshqalar.

Xulosa

Inklyuziv ta'lim nafaqat ta'lim jarayonini rivojlantirish, balki jamiyatda tolerant muhitni yaratishning samarali resursidir. U o'quvchilarga teng imkoniyatlar beradi, hurmat va bag'rikenglikni shakllantiradi. Ta'lim muassasalari inklyuziv strategiyalarni joriy etish orqali barcha o'quvchilarni o'z qobiliyatlarini to'liq ro'yobga chiqarishiga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, inklyuziv ta'limning zamirida INSON QADRI deb atalmish buyuk tuyg'u yotadi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: » Inson qadri barcha narsadan ulug'»dir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Inklyuziv ta'lim nazariyasi. D.A. Abdusamiyev N.X. Jumaboyev. Namangan – 2024
2. "Inklyuziv ta'lim haqida bilasizmi?" nomli maqola Hamrayeva Vasila Mirzohid qizi. By Admin 2 / 27.10.2023
3. <https://gujum.uz/ozbekiston/inklyuziv-talim-muhitini-yaratish>
4. <https://sdgnuuz.uz/>
5. <https://translate.google.com/>